

**Guliston davlat universiteti  
“Pedagogika va psixologiya”  
kafedrasi, Psixologiya fanlari  
doktori, dosent, Sharapova Saboxat  
Djabbarovna taqrizi ostida**

**Toshtemirov Doniyor Eshboyevich  
GulDU, Pedagogika kafedrasi mudiri, dotsent  
+998994733074  
G‘aniboyeva Malikabonu Bahodir qizi  
GulDU talabasi  
+998970202427**

---

## **BOLALARDA NUTQ BUZILISHI JARAYONINING YUZAGA KELISHI SABABLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarda nutq buzilishi jarayonining yuzaga kelishi sabablari, omillari, shuningdek davolash chora tadbirlari haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Afiksiya, dislaliya, nutq buzilishi, Psixik-ijtimoiy sabablar, kasbga yo'naltirish, sog'lomlashdirish.

---

### **CAUSES OF THE PROCESS OF SPEECH DISORDER IN CHILDREN**

**Abstract:** This article provides information about the causes, factors, and treatment measures of speech disorders in children.

**Key words:** Afixia, dyslalia, speech disorder, psycho-social causes, career guidance, rehabilitation.

---

### **ПРИЧИНЫ НАРУШЕНИЯ РЕЧЕВОГО ПРОЦЕССА У ДЕТЕЙ**

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о причинах, факторах и мерах лечения речевых нарушений у детей.

**Ключевые слова:** Афиксия, дислалия, нарушение речи, психосоциальные причины, профориентация, реабилитация.

---

Bugungi davrda har tomonlama barkamol inson shaxsini shakillantrish davrimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, istedodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog‘liqdir. Shuning bilan bir qatorda ayrim bolalarda nutq buzilishi jarayonining mavjud ekanligi uning to‘laqonli bilim olishiga, mustaqil fikrlashiga, dunyoqarashiga jiddiy ta’sir qilishi extimoldan holi emas. [1] Daslab nutq buzilishini yuzaga kelish tarixi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Dastlab XIX asrning o‘rtalarida olimlar miyaning ba’zi bir qismlari ishidagi buzilish nutqning buzilishiga olib kelishini kashf etdilar. Jumladan, P.Broka bemorlarda chap yarimsharning pastki peshona qismidagi burmalari orqa tomonining uchdan bir ulushi shikastlangan holda so‘zlarni talaffuz etishda buzilish ro‘y berishini aniqladi. Keyinroq K.Vemike chap yarimshaming ustki chakka qismidagi burmalari orqa tomonining uchdan bir ulushi shikastlanganda so‘zlarni tushunishning buzilishi hollarini tavsif qildi. Miya to‘qimalarining ushbu qismlari harakatlantiruvchi nutq (“Broka markazi”) va nutqni tushunish (“Vemike markazi”) “markazlari” deb yuritila boshladi. Lekin keyinchalik, asosan psixofiziologlar (A.R. Luriya, N.A. Bernshteyn, P.K. Anoxin va boshqalar) ning

ilmiy ishlari tufayli nutqning fiziologik negizi miyaning alohida qismlari (“Nutq markazlari”) faoliyatidan ko‘ra ko‘proq yaxlit holdagi miya faoliyatining murakkab tarzda tashkil topishidan iborat ekanligi aniq-ravshan bo‘ldi. Shunday qilib, nutq funksiyalarining jo’shqin, ya’ni anatomik tarzda emas, balki harakatchan tarzda cheklanishi to‘g‘risidagi tasavvur tarkib topdi. Bu — markaziy asab tizimining keng ravishda kompensatsiyalab (o‘rnini to‘ldirib) turish imkoniyatlaridan foydalanishi munosabati bilan nutqning buzilishini to‘g‘rilashida juda katta ahamiyat kasb etadi. [2]

Hozirgi vaqtida yoshlarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablarga tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek, atrof-muhitning tashqi sharoitlari sabab bo‘ladi. Nutq nuqsonlarining turli sabablarini aniqlashga evolutsion-dinamik yondashiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, nuqsonli rivojlanishning umumiyligini hisobga olishni talab qiladi (Abu Ali ibn Sino, I.M.Sechenov, L.V. Vigotskiy). Bolalardagi nutq kamchiliklarning asosiy sabablarini uch guruhgaga ajratish mumkin:

**1. Ekologik sabablar:** ichki va tashqi radiatsiya; qishloq xo‘jaligida qo’llanadigan pestitsidlар va gerbitsidlар; avtotransportdan chiqadigan gazlar; harbiy poligonning zararli ta’sirlari; oziq-ovqat va suv ta’minotining sifatsizligi.

**2. Tibbiy-ijtimoiy sabablar:** er-xotin qarindoshchiligi; ota-onaning rivojlanishidagi orqada qolishlar; jarohatlar (jismoniy va ruhiy); ota-onalarning surunkali kasallikkleri; zararli odatlar (ichkilikbozlik, nashavandlik, toksomoniya, kashandalik); onaning surunkali og‘ir anamnezi; oilani noto‘g‘ri rejalashtirish, abortlar, onaning ginekologik kasallikkleri, erta va kech tug’ruqlar (birinchi homilaning 16 yoshdan oldin va 40 yoshdan keyin bo‘lishi); tug’ruqdan oldingi jarohatlar; bolalarda somatik kasallikklar; bakterial-virusli infeksiyalar; ona va bolaning to‘liq oziqlanmasligi; oilaga tibbiy tashxis va korreksion yordamning o‘z vaqtida berilmasligi. [3]

**3. Psixik-ijtimoiy sabablar:** ommaviy va majmuali deprivatsiya; ota-onalar tomonidan diqqat-e’tiborning sustligi; bolalarga nisbatan qattiqqo’llik; oila va aholi intellektual saviyasining pastligi; oilaning to‘liqsizligi; fojiali vaziyat (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy); ruhiy-pedagogik tashxis va korreksianing sifati, hajmi va hozirgi zamon talablariga javob bermasligi. Embriyon rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar:

— homiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasallikklar, jarohatlar, onaning rezus-faktorga mos kelmasligi;

— tug‘ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;

— bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasallikkleri (meningit, ensofalit);

— miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo‘ladigan bosh miya jarohatlari;

— nasliy omillar. Bunday hollarda nutq buzilishlari umumiyligini nerv tizim buzilishlarining bir qismini tashkil etib, intellektual va harakat kamchiliklari bilan birga kuzatiladi;

— ijtimoiy sharoitning yomonligi. Bu holat pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunksiyaga, emotsiyonal-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bojadi. Barcha nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko‘ra ikki guruhgaga bolinadi:

1. Organik xarakterdagи nutq buzilishlari.

2. Funksional xarakterdagи nutq buzilishlari.

Organik nutq buzilishlari o‘z navbatida ma’lum nutq organi joyining zararlanishiga ko‘ra markaziy va periferik xarakterda bojadi. Markaziy buzilishlar: markaziy nerv tizimidagi u yoki bu qismlarning buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagи organik nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizartriya kabi nutq kamchiliklari kiradi.

Periferik buzilishlar: artikulatsion apparatning noto‘g‘ri tuzilishi yoki buzilishi va periferik nerv artikulatsion organlar inervatsiyasining buzilishidan kelib chiqadi. Periferik xarakterdagи organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funksional buzilishlar. Bunda nutq jarayonida ishtirot etadigan a’zolar tuzilishida hech qanday o‘zgarishlar bolmaydi. Funksional xarakterdagи nutq buzilishlariga — dislaliya,

duduqlanish kabi nutq nuqson lari kiradi. Rivojlanishida kamchiliklar boigan bolalarni erta aniqlash va logopedik yordam berish nutq kamchiliklarining oldini olish va mакtabga nutqiy jihatdan tayyorlashdir. Nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarning oldini olishda tugllish vaqtida shikastlangan bolalarning dispanserizatsiyasi muhim rol o‘ynaydi. [4]

Xulosa qilib aytganda, bolalarda nutq kamchiliklarini barvaqt aniqlash, ularni maxsus ta’limga jalb etish, har tomonlama rivojlantirish, insonparvarlik, fidoyilik ruhida tarbiyalash, o‘qitish, kasbga yo‘naltirish, sog‘lomlashtirish, hayotga tayyorlash va normal rivojlangan insonlar jamiyatiga moslashtirish amaliy logopediyaning vazifalariga kiradi. Shunday qilib, mакtabgacha yoshdagagi bolalarda nutq buzilishlarining yuzaga kelishida ekzogen-organik omilning rolini baholashda jarohatning vaqt, xarakteri va joylashishini, bola nerv tizimining moslashuvchanligini, shuningdek, miya jarohatlangan paytda nutq funksiyasining shakllanganlik darajasini hisobga olish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maxsus psixologiya: o‘quv qo‘llanma / L.R. Mo‘minova, va boshqalar; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. - 272 b [3, 4-67-68 bet]
2. N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya. (Tiflopsixologiya). (Darslik). -. : “Barkamol fayz media”, 2017, 192 bet. [1- 4-5 bet]
3. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. — T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2006.— 119 b. [2-35-36 bet]
4. Adizova S. “O‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari». — T., 2002.  
учащихся вспомогательной школы. — Т., Уқитувчи, 1986.
5. Ayupova M. Logopediya. — T., 2011. L.R. Mo‘minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova,
6. M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova  
„Maxsus Psixalogiya” Toshkent -2013.[5-20-22]